

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2021-yil yanvar-oktabr oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1 - noyabr xolatiga, birlikda)




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar




(1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda)



Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **21,5** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **19,9 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



190

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

3 013

Ishlab chiqarish sanoati

42

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

56

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 3 301 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 19,9 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida 20,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 91,3 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 6,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,7 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 16,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,3 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 40,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,7 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,6** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




10,6 foizga oshdi




Mikrofirkmalar



Kichik korxonalar



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, yillar kesimida




- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
- fuqarolik obyektlarini qurish
- bino va inshootlar qurish

2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 489 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,6 % ga oshdi.


Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu - bino va inshootlar qurishda - o'tgan yilga nisbatan 9,2 % ga (jami qurilishdagi ulushi 60,2 %), fuqarolik obyektlarini qurish - 25,5 % ga (jami qurilishdagi ulushi 10,3 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 2,8 % ga (jami qurilishdagi ulushi 29,5 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, yillar kesimida

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 6 475 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 23,9 % ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili - avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan 26,0 % ga (jami savdodagi ulushi 70,7 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan 17,6 % ga (jami savdodagi ulushi 21,2 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan - 19,7 % ga (jami savdodagi ulushi 8,1 %) o'sishidir.



- Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

401



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

20




• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

10




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

Mikrofirmalar

Kichik korxonalar




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **14,6 foizga oshdi**






Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

Mikrofirmalar

Kichik korxonalar



14,6 foizga oshdi



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



104
yashash bo'yicha xizmatlar




1 312
Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 416 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,6 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar 14,1 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,7 %), yashash bo'yicha xizmatlarning 20,9% ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,3 %) o'sishidir.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofimlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra 2 001 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 413 ga yoki 26,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 905 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 413 ga yoki 27,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar- oktabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 409 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 76,2 % ni tashkil etdi.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra 15 660 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 020 ga yoki 23,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 14 958 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 716 taga yoki 22,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar- oktabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 866 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 502 taga yoki 21,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni


(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

14



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra 176 tani tashkil etib, ulardan 175 tasi yoki 99,4 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 14 taga yoki 6,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida 20 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)


16

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Qoraqalpog'iston Respublikasi	175	109	66
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	6	2	4
Beruniy	12	5	7
Bo'zatov	5	5	0
Qorao'zak	12	9	3
Kegeyli	6	5	1
Qo'ng'iro't	9	7	2
Qonliko'l	6	3	3
Mo'ynoq	35	25	10
Nukus	10	5	5
Taxiatosh	10	4	6
Taxtakopir	4	3	1
To'rtko'l	5	4	1
Xo'jayli	4	2	2
Chimboy	4	3	1
Shumanay	5	2	3
Ellikqal'a	5	4	1
Nukus sh.	37	21	16

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Nukus shahrida 37 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 21,1 %), Mo'ynoq 35 ta (20,0 %), Beruniy va Qorao'zak 12 ta (6,9%), Taxiato'sh va Nukus tumani 10 ta (5,7 %), Qo'ng'iro't 9 ta (5,1 %), Amudaryo, Kegeyli, Qonliko'l tumanlarida 6 tani (3,4 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Nukus shahri (28,5 %), To'rtko'l (10,2 %), Beruniy (8,5 %), Amudaryo (7,4 %), Ellikqal'a (6,1 %), Qo'ng'iro't (5,6 %), Xo'jayli (5,2 %), Nukus (4,4 %), Chimboy (4,0 %), Taxiatosh (3,1 %), Kegeylida va Qorao'zakda (2,8 %), Qonliko'l va Mo'ynoqda (2,7 %), Shumanay tumani (2,6 %), Taxtako'pir (1,9 %) va Bo'zatov (1,5 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2021- yil yanvar - oktabr oylarida, birlikda)

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Nukus shahrida (25,7 %), To'rtko'l (8,5 %), Beruniyda (8,9 %), Amudaryo (7,3 %), Ellikqal'a (6,2 %), Xo'jayli (6,1%), Qo'ng'iro't (4,8%), Chimboy (4,5 %), Nukus (4,2 %), Mo'ynoqda (3,9 %), Kegeyli (3,1 %), Qonliko'l (3,1 %), Taxiatosh (3,2 %), Shumanay (2,8 %), Qorao'zak (2,6 %), Bo'zatov (2,6 %), Taxtako'pir (2,5 %) tumanlari ulushiga tegishli.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Nukus shahrida (33,4 %), To'rtko'l (10,7 %), Beruniy (7,5 %), Amudaryo tumani (6,7 %), Nukus (5,3 %), Xo'jaylida (5,2 %), Qo'ng'iro't (5,1 %), Ellikqal'a (4,3 %), Chimboy (4,1 %), Qorao'zak (3,0 %), Mo'ynoq (3,0 %), Kegeyli (3,0 %), Taxiatosh tumani (2,4 %), Bo'zatov, Qonliko'l va Shumanay (1,7 %), Taxtako'pir (1,2%) tumanlari hissasiga tegishli.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275 - son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: 61 224-92-09